

**ANBAR OTIN IJODINING O’RGANILISHI IKKINCHI MUQIMIYNING
“SAYOHATNOMA” ASARINI O’QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNALOGIYALARNI QO’LLASH**

Mo’tabar Ravshanova Kamolovna

Ichki ishlar vazirligi Qashqadaryo akademik litseyi

Ona tili adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muqimiyning asari haqida, Muqimiyning hayoti va ijod yo’llari, hozirgi kundagi pedagogic texnologiyalar haqida qisqacha so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: Muqimiy, hayoti, ijodi, Oyshabibi, Qo’qon, faoliyat.

Otasi toshkentlik, onasi Oyshabibi xo’jandlik bo’lib, Qo’qonda yashaganlar. Muqimiy boshlang’ich ma’lumotni mahallasidagi maktabda olgan. Onasi Muhammad Aminxo’jada she’riyatga havas uyg’otgan. Muqimiy Qo’qondagi Nodira bino qildirgan „Moxlar oyim“ madrasasida, so’ng Buxoro madrasalaridan birida o’qigan (1864–1865; 1875–1876). 1876-yilda Qo’qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan faoliyati vaqtda amaldorlarning qallobliklarini befarq kuzata olmasdan „Tanobchilar“ satirasini yozgan.

70-yillar oxirlarida Qo’qonga qaytgan va ijod bilan shug’ullangan. Otasi vafotidan so’ng moddiy ahvoli og’irlashgach, „Hazrat“ madrasasining kichik bir hujrasiga ko’chib o’tgan (1885), butun umri qashshoqlikda kechgan. Bir necha bor Toshkentga sayohat qilgan (1887–1888, 1892), Toshkentdagi yangiliklar bilan tanishgan. Toshkent madaniy va adabiy hayotini chuqur o’rgangan. Almaiy, Nodim kabi ilg’or ruxdagi ijodkorlar bilan aloqa bog’lab, ijodiy hamkorlik qilgan. Muqimiy yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab edi. Bunday muhit Muqimiy ijodiga kuchli ta’sir ko’rsatdi. Ijodining ilk davrida qisman shaklbozlik unsurlari, san’atpardoqlik mayllariga berilish ham uchraydi. Lekin tezda bu xil an’analardan voz kechib, jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi. Navoiy, Jomiy, Nizomiy va Fuzuliydan o’rgandi, ular g’azallariga muhammaslar bog’ladi. Jomiyni o’ziga ustoz bildi. O’zbek, fors mumtoz shoirlari an’analari davom ettirdi. O’zbek adabiyotida demokratik yo’nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan bog’liq. U boshliq Furqat, Zavqiy, Avaz, Komil kabi ilg’or fikrli shoirlar o’zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdilar. Muqimiy lirikasi chuqur optimizm bilan sug’orilgan, hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlaridan. Muqimiy real muhabbatni, insonni kuylagan. She’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do’stlik, sadoqat, samimiyat vafodorlik, sabot va matonat

ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamoni orzu qilgan, shunday kunlar kelishiga ishongan („Kelur oxir seni ham yo‘qlag‘udek bir zamon yaxshi“ va boshqalar). Hasrat, shikoyat, norozilik motivlari mavjud bo‘lgan she‘rlarida ham kelajakka ishonch, farovon hayot haqidagi orzu-ideallari aks etgan.

Muqimiy dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit o‘rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo‘nalishni maydonga keltirgan. Bu uning xajviyotida ko‘proq aks etgan. Hajviyoti mazmunan satira va yumorga bo‘linadi. Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib tashlangan („Tanobchilar“, „To‘y“, „Moskovchi boy ta‘rifida“, „Hajvi Viktor boy“, „Voqeari Viktor“ va boshqalar)- „Saylov (Adabiyot)“, „Dar mazammati zamona“ va boshqalarda o‘lkaga kirib kelayotgan kapitalistik va g‘ayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlari ko‘rsatilgan. Ba‘zan, o‘sha davrdagi hukmron qarashlarga ergashib, Dukchi eshon haqida ham hajviy asarlar yozgan („Hajvi halifai Mingtepa“).

Ot, arava, loy, pashsha, bezgak kabi mavzularda 30 ga yaqin hajviy asar yaratgan. Ularda shoir turmushning qoloq va chirkin tomonlari, ijtimoiy ongda nuqsonlar ustidan kulgan, mustamlakachilik azobi, harobalikni zaharxandalik bilan tasvirlagan („Devonamen“, „Ko‘samem“, „Hayron qildi loy“, „Pash-shalar“, „Shikoyati bezak“ va boshqalar). Boshqa bir qator hajviyalarida jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga yangicha munosabat aks etgan („Ta‘rifi pech“, „Araba qursin“, „Loy“ va boshqalar).

Muqimiy o‘zbek adabiyotiga ishchilar mavzusini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi („Maskovchi boy ta‘rifida“, „Voqeari Viktor“ va boshqalar). Turli shahar va qishloqlarga qilgan sayohatlari taassurotlari asosida 4 qismli „Sayohatnoma“ asarini yozdi. Asar yengil, o‘ynoqi vaznda yozilgan, 4 misrali bandlardan tashkil topgan. Unda xalq turmushining og‘irligi, qishloqlarning vayronaligi realistik tasvirlangan. Shoir yaxshilikni ma‘qullab, go‘zallikni madh etgan, kamchiliklar ustidan kulib, tanbeh bergan, yovuzlikni, turli illatlarni tanqid qilgan.

Muqimiyning nasr va nazmdagi maktublari epistolyar adabiyot namunasi hisoblanadi. 10 she‘riy, 20 ga yaqin nasriy maktublari saqlangan. She‘rlari qo‘lyozmalar, bayozlar, 20-asr boshlarida litografiyada nashr qilingan kitoblar, Toshkent va Peterburgda bosilgan vaqtli matbuot sahifalarida bizgacha yetib kelgan. Muqimiy ijodini o‘rganish, asarlarini to‘plash va nashr ettirish u hayot davridayoq boshlangan. Dastlab Ostroumov „Devoni Muqimiy“ to‘plamini (T., 1907) nashr qilgan, so‘ng 1910–1912-yillarda „Devoni Muqimiy maa hajviyot“ nomi bilan asarlari to‘plami bosilgan. Keyingi davrlarda G‘ofur G‘ulom, Oybek, X. Zarifov, H. Yoqubov, H. Razzoqov, G‘. Karimov, A. Xayitmetov va boshqalar Muqimiy ijodini tadqiq etganlar. She‘rlaridan namunalar chet tillarga tarjima qilingan. Qo‘qonda uy-muzeyi tashkil etilgan. Farg‘ona viloyatidagi shaharcha, Toshkent ko‘chalaridan biri, O‘zbek davlat musiqali drama teatri Muqimiy nomi bilan ataladi. Shoir haqida Sobir Abdulla

„Mavlono Muqimiy“ romani va „Muqimiy“ dramasi yaratgan. Muqimiyning aksariyat gʻazallari ashulaga aylangan.

Adabiyotlar:

1. Yoqubov H., Oʻzbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953;
2. Zarifov H., Muhammad Amin Muqimiy, T., 1955;
3. Karimov F., Muqimiy. Hayoti va ijodi, T., 1970;
4. Karimov Gʻ. Oʻzbek adabiyoti tarixi. 3-kitob, T., 1975.
5. Karimov Gʻ. Muqimiy hayoti va ijodi. T., 1970.
6. Ahmedov S. Oʻzbek demokratik adabiyotida sheʼriy hikoya. T., 1987.
7. Karimov F., Oʻzbek adabiyoti tarixi, 3kitob, T., 1966, 1975, 1987.